

---

## Hokim yordamchisi xalq ko'makchisi bo'lmoqda

Qo'shtepa tumanidagi "Solijonobod" mahallasida yashovchi Abrorjon Jo'raqo'ziyev tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirib, mahalla hokim yordamchisi Sherzodbek Rahmonovga murojaat qildi.

Dastlab Abrorjonga mahalla hududidan o'tuvchi A-373 magistral yo'l bo'yida K - SAVDO ga chiqarilgan bo'sh turgan yer maydonlari tanishtirildi.

Shundan so'ng, 200 kv.m maydonga tanlov g'olibi bo'lgan Abrorjon "Har bir oila - tadbirkor" dasturi asosida xizmat ko'rsatish yo'nalishida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni rejalashtirdi.

Unga Xalq banki Qo'shtepa filiali tomonidan 32.9 mln.so'm imtiyozli kredit ajratilib, yuqori bosimli yuvish mashinalari olib berildi. Natijada 4 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2025-01-30 12:58:59